

Oliy Ta'lim Muassasasida Psixologik Xizmatining O'rni

Sadiyeva Sadoqat Alijonovna¹

Annotasiya: Ushbu maqolada psixologik xizmatning rivojlanish va shakllanish tarixi masalasi ko'rib chiqiladi. Ta'lim psixologik xizmatining tarkibiy qismlari, ularning vazifalari tasvirlangan. Oliy ta'limda psixologik xizmatning samaradorligini aniqlash bo'yicha so'rovnama o'tkazilib taxlit natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limning psixologik xizmati, tarkibiy qismlari (jihatlari), psixologik xizmat ta'lim: ilmiy, amaliy, amaliy-tashkiliy.

Psixologik xizmat ko'pgina mamlakatlarda mavjud bo'lib, butun ta'lim va tarbiya tizimini qamrab olgan va deyarli bir asrlik tarixga ega. Bugungi kunda psixologik xizmat haqida gapirish uchun uning yaratilish tarixini ko'rib chiqish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldaggi PQ – 3151 sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 2 avgust kuni o'tkazilgan majlis bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan 5-sonli ilovasiga muvofiq, 2017 yildan barcha oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'lim muassasasida psixolog xizmati tashkil etildi [1].

Ushbu xizmat 1800-yillarda boshida AQShda paydo bo'lgan va rivojlangan. Hozirgi vaqtida u zamonaviy psixologiyaning eng hayotiy va samarali yo'nalishlaridan biridir. AQShning birinchi amalyotchi psixologlari o'zini-o'zi tarbiyalash muammosini o'rgangan eksperimental psixologlar edilar. Amerika maktablarida aqliy tarraqiyot koeffitsentini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik "Gaydens" xizmatining rivojlanishiga turki bo'ldi.

Psixologik xizmatning rivojlanishi Fransiyada qiziqish o'yg'otadi. 1905 yilda Frantsiya ta'lim vazirligi umumiy dastur bo'yicha maktabda o'qiy olmaydigan bolalar muammosini o'rganish uchun mutaxassislarga topshiriq beradi. Tadqiqot natijasida mashhur aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash uchun Bine-Simon testi paydo bo'ldi. Buning ortidan bunday bolalar uchun maxsus maktablari tashkil etildi darslar va 1909 yilda Fransiyada birinchi bo'lib professional maktab psixologik xizmati ochildi. 1970-yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruxlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etadi. Bubday guruhlar maktab psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi va psixomotor rivojlanish bo'yicha bittadan mutaxasisni o'z ichiga oladi. Guruh 800-1000 o'quvchiga xizmat qiladi, bir maktabda joylashi, bir necha maktabda xizmat qilishi mumkin. 1947 yilda Parijda A. Vallon professor boshchiligidagi maktab psixologlari guruhi ish boshladi [2].

Ko'pchilik sharqiy yevropa mamlakatlarida maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik markazlari shaklida tashkil etkan. Masalan, 1980-yilda Chexoslavakiyada tarbiya masalalari bo'yicha modda maktab to'g'risidagi qonunga kiritildi. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog'lom shaxsning o'sishini taminlash, shaxs rivojlanishdagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish (tuzatish), kasbni tanlash muammolarini o'rganish va hal qilishga turki berishdir.

Sobiq sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta'limida psixologiyadan foydalanish borasida urunishlar pedalogiya doirasida vujudga keldi. 1936 yilda pedalogik qarashlarni to'xtatish xaqida qaror qabul qilindi, shu bilan birga rus psixologlari amalga oshirayotgan bola psixoloyasidagi ijobiy izlanishlar ham to'xtab qoldi. Faqat 60-yillarning oxiriga kelib, psixologlarning maktab ishidagi amaliy ishtrok etishi qayta tiklandi [3].

¹ University of business and science Nodavlat oliy ta'lim muassasasi Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



O'zbekistonda psixologik xizmat 1989 yilda amalyotchi psixologlarning yetishmayotkanligi sababli Nizomiy nomli TDPUDA amalyotchi psixologlar taylorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G. Davletshin, E.G. Goziyev, B.R. Qodirov, G.B. Shoumarov, V.M. Karimova kabi olimlar hissa qoshishgan.

Oliy ta'lif psixologi talaba xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatları, kasbiy bilimlari, talabalar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashuviga tayanib, shaxsga individual yondashuv imkoniyatlarini beradi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, me'yordan chetlashishlarning ehtimolli sabablarini, psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan oliy ta'lif tizimi psixologi ta'lif tizimi, xususan oliy ta'lif tizimida, o'quv tarbiya ishining maxsulorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirish imkoniyatini yaratadi [3].


Oliy ta'lif psixologi faoliyati ta'lif xizmatlari sohasiga mansub bo'lib, kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda talabaning har tomonlama garmonik, to'laqonli psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, oliy ta'lif psixologining burchi ta'lif-tarbiya ish rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o'quv dasturi, qo'llanmalarini yaratishda faol ishtirok qilish va bosh maqsad bo'lgan talabaning intelektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim, ko'nikma va malakalari, mutaxassislik xislatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o'zining munosib ulushini qo'shishdan iboratdir. Psixologi o'zining talaba xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatları, kasbiy bilimlari, talabalar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashuviga tayanib, shaxsga individual yondashuv imkoniyatlarini beradi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, me'yordan chetlashishlarning ehtimolli sabablarini, psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan oliy ta'lif tizimi psixologi ta'lif tizimi, xususan oliy ta'lif tizimida, o'quv tarbiya ishining maxsulorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Oliy talim psixologi faoliyati zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib borilib, u ishlayotgan muassada umumiy o'quv va tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixolog faoliyatining tadqiqot va ta'sir o'tkazish ob'ekti oliy ta'lif muassasalari talabalari, o'qituvchilar, ota-onalari bo'lib, hisoblanadi. Ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin. Shu bilan birgalikda barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxsning (pedagog, talaba, ota-onal) manfaati va uning har tomonlama uyg'un va mukammal rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondashadi. Oliy ta'lif psixologlari o'z faoliyatlarini ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, fakultetlar, tibbiyot xodimlari, muayyan komissiyalar, ota-onalar hamda oliy ta'lif muassasi jamoasi bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar. Ushbu lavozi Oliy ta'lif Kengashi qaroriga ko'ra rektor buyrug'i bilan ta'sis etiladi. Rektor buyrug'i bilan ta'sis etib, psixolog lavozimi bo'yicha umumiy rahbarlikni yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektori olib boradi.

Oliy ta'lifda psixologik xizmatni faoliyatini samaradorligi aniqlash maqsadida Namangan davlat universiteti fakultetlari talabalar qamrab olinib so'rovnomada o'tkazildi. So'rovnomada talabalar ishtrok etishib, ularga - "Universitetingizni psixologi bilan tanishsizmi?", "Psixolog o'zi kim va nima ishlarni qiladi?", "Psixologning tadbirlarida va treninglarida ishtrok etkanmisiz?", "Psixolog konsultatsiyasiga murojaat qilganmisiz?" kabi savollardan tashkil topgan.





- 1. "Universitetingizni psixologi bilan tanishsizmi?"
- 2. "Psixolog o'zi kim va nima ishlarni qiladi?"
- 3. "Psixologning tadbirlarida va treninglarida ishtrok etkanmisiz?"
- 4. "Psixolog konsultatsiyasiga murojaat qilganmisiz?"

So'rvnomada umumiy 662 nafar talaba-yoshlar ishtrok etishgan bo'lib, quyidagi natijalar olindi: universitetni psixologi tanishini 96 nafar talaba aytib o'tishgan, psixolog kimligini va nima ish qilishini 114 nafar talaba ovoz bergan, psixologning tadbirlarida va treninglarida 378 nafar talaba ishtrok etkanini takidlashgan va psixolog konsultatsiyasiga 74 nafar talaba-yoshlar murojat qilganlarini aytishgan.

Ushbu so'rvnomada ishtrok etkan talabalarining natijalarini umumlashtirib natijalarni taxlil qilsak, universitet talabalari psixologni yaqindan tanimasliklari va konsultatsiyasiga borish mumkinligini xam bilishmas ekan, aksincha universitet psixologining faoliyati tadbirlar va treninglar o'tkazishdan iborat deb bilishar ekan. So'rvnomada natijalari bizga psixologning universitetdagi ish faoliyati samarasini yuqori emasligini guvoxi bo'ldik. Universitetning katta miqdordagi kontingenti uchun bitta psixolog shtati ajratish va undan psixoprofilaktik, psixologik targ'ibot va ma'rifat, psixodiagnostika, psixik rivojlantirish va psixokorreksiya, psixologik konsultatsiya kabi ishlarni mukammal bajarishini kutish ilojsiz. Yuqorida takidlab o'tkanimizdek, Oliy ta'lif psixologning asosiy faoliyati va funktsiyalari talabalarining o'ziga xos ehtiyojlari va vazifalariga, shuningdek psixologik xizmat, ma'lum bir muassasa ishi to'g'risidagi namunaviy Nizomda ko'rsatilgan o'quv muassasasining tashkiliy tuzilishiga bog'liq. Shunday ekan, universitet va institatlardagi talabalarining psixologga bo'lgan extiyoji qoniqishi uchun o'quv muassasi tomonidan kontigentni xisobga olgan xolda qoshimcha shtat yoki xar bir fakultetda psixolog shtati berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday imkoniyatni o'quv muassasa taqtim etolmasa, universitet yoki institut psixologlarining ishlarida yengillik bo'lishi uchun talabardan volontyorlik asosida yordamchi jamoa tuzush taklif berish mumkin. Talabalar jamoasini kuzatadigan bo'lsak, ko'plab talabalar boshqa mutaxasis egasi bo'lishsada psixologiyaga qiziqishini payqashimiz mumkin. Ushbu soxaga qiziqgan talabardan tashkil topgan jamoa oliyoh psixologining ishini samaradorligini oshirgan bo'lar edi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prizodentining Qarori, 27.07.2017 yilidagi PQ-3151-son/
<https://lex.uz/docs/-3286194>.
2. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov. Psixologik xizmat/ darslik: Toshkent, 2014. – B.4
3. Басов, М. Я. Общие основы педагогии / М. Я. Басов ; отв. ред. Е. В. Левченко. — СПб. : Алетейя, 2007. — 776 С.

